International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

Vol. 1 Issue 1 | pp. 373-376 **| ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

A Multichannel Model for Diversifying the Resource Base of Commercial Banks and its Impact on Liquidity

Eshmurodov Sulton Suvonqulovich*

1. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

* Correspondence: eshmurodovsulton1991@mail.com

Abstract: The article analyses changes in the funding structure of commercial banks in Uzbekistan and their impact on liquidity resilience. Based on a sample of five banks, it finds that loan-to-deposit ratios range from 113.3% to 231.1%, while the share of deposits in liabilities is declining and wholesale funding is rising. A multi-channel funding model is proposed that minimises the currency-risk-adjusted cost of funding subject to net stable funding ratio (NSFR) and Herfindahl–Hirschman index (HHI) constraints. Calculations based on JSC Aloqabank data show a 10.7% reduction in funding concentration and a 23–27% increase in total liquid resources.

Keywords: commercial bank, liquidity, funding base, diversification, wholesale funding, NSFR, Herfindahl–Hirschman index, multi-channel model.

Citation: Suvonqulovich, E. S. A Multichannel Model for Diversifying the Resource Base of Commercial Banks and its Impact on Liquidity. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 373-376.

Received: 22th Aug 2026
Revised: 26th Sept 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Kirish

Tijorat banklarining likvidligi ko‘p jihatdan ularning resurs bazasi qanchalik barqaror va diversifikatsiyalanganiga bog‘liq. 2020–2025 yillarda O‘zbekiston bank tizimi aktivlari 2,5 baravar o‘sib, 924,8 trln so‘mga yetdi, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) 2025 yil yakunida 208 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me’yori (NSFR) esa 120 foizni tashkil etdi [9]. Biroq tizim darajasidagi yuqori ko‘rsatkichlar alohida banklar resurs bazasidagi tarkibiy muammolarni yashiradi: kredit qo‘yilmalari depozitlardan tezroq o‘smoqda, bank tizimida kredit/depozit nisbati 145 foizga yetgan, banklar esa farqni xalqaro kredit liniyalari, banklararo va ulgurji moliyalashtirish hisobidan qoplamoqda.

Resurs manbalari sonining ortishi o‘z-o‘zidan barqarorlikni ta’minlamaydi. Agar yangi manbalar qiymat, muddat va valyuta jihatidan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, inqiroz paytida ular bir vaqtda qimmatlashishi yoki qisqarishi mumkin. Shu sababli resurs kanallari o‘rtasidagi muvozanatni miqdoriy mezonlar asosida boshqarish zarurati yuzaga keladi. Maqolaning maqsadi – tijorat banki resurs bazasini diversifikatsiyalashning miqdoriy cheklovlarga asoslangan multikanal modelini ishlab chiqish va uning likvidlikka ta’sirini baholashdan iborat.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Basel III islohotlaridan keyingi tadqiqotlarda likvidlik talablarining bank balansi tarkibiga ta’siri keng o‘rganilgan. D. Diamond va A. Kashyap likvidlik talablari omonatchilarning ommaviy chiqib ketishi xavfini kamaytirishini nazariy jihatdan asoslagan [2]. A. Berger va C. Bouwman banklarning likvidlik yaratish funksiyasi bilan moliyaviy inqirozlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan [1]. Empirik tadqiqotlarda P. Duijm va P. Wierts banklar likvidlik talablariga asosan majburiyatlar tarkibini

o‘zgartirish orqali moslashishini aniqlagan [3]. R. Banerjee va H. Mio Buyuk Britaniyada likvidlik regulyatsiyasi joriy etilgach, banklar yuqori sifatli likvid aktivlar ulushini oshirib, moliyaviy tashkilotlardan qisqa muddatli qarz olishni qisqartirganini ko‘rsatgan [4]. M. Hoerova va hammualliflar likvidlik regulyatsiyasining barqarorlikka ijobiy ta’siri bilan birga uning xarajatlarini ham baholagan [5], D. Roberts va hammualliflar esa likvidlik talablari banklarning likvidlik yaratish hajmini qisqartirishini qayd etgan [12].

Mahalliy tadqiqotlarda B.B. Izbosarov globallashuv sharoitida likvidlikni tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalarini [6], D.Ch. Murodova tranzaksion depozitlar va xorijdan jalb qilingan kreditlarning likvidlikka ta’sirini [7], S.A. Sulaymonov esa monetar siyosat instrumentlari orqali likvidlikni tartibga solish yo‘llarini [8] tadqiq etgan. Jumladan, D.Ch. Murodova xorijdan jalb qilingan kreditlar ulushining ortishini likvidlik nuqtai nazaridan salbiy holat sifatida baholagan [7]. Biroq mavjud ishlarda resurs manbalari tarkibini qiymat, barqarorlik va konsentratsiya cheklovlari bo‘yicha yagona tizim sifatida optimallashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2025 yillardagi statistik ma’lumotlari hamda «O‘zsanoatqurilishbank» ATB, «Asakabank» ATB, «Ipak yo‘li» AITB, «Tenge bank» ATB va AT «Aloqabank»ning moliyaviy hisobotlari tashkil etdi. Resurs bazasining konsentratsiyasi Herfindal–Hirshman indeksi orqali o‘lchandi:

$$HHI = \Sigma\, s_j^2 \qquad (1)$$

bu yerda s_j – j-resurs manbaining jami resurslardagi ulushi, foizda. Indeks 10 000 ga yaqinlashgani sari resurs bazasi bitta manbaga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi.

Resurslar tarkibini optimallashtirish vazifasi quyidagicha qo‘yildi:

$$\min \Sigma\, w_j \cdot r_j \qquad (2)$$

$$\Sigma\, w_j = 1; \quad \Sigma\, w_j \cdot ASF_j \geq NSFR^* \cdot RSF;$$

$$HHI(w) \leq HHI^*; \quad 0 \leq w_j \leq w_j^{max} \qquad (3)$$

bu yerda w_j – j-manbaning ulushi; r_j – uning valyuta riskiga tuzatilgan qiymati; ASF_j – Basel III bo‘yicha mavjud barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti; RSF – talab etiladigan barqaror moliyalashtirish hajmi; NSFR* va HHI* – bank belgilagan maqsadli chegaralar. Model portfel nazariyasidagi diversifikatsiya tamoyiliga tayanadi: o‘zaro to‘liq korrelyatsiyaga ega bo‘lmagan manbalar birlashtirilganda umumiy moliyalashtirish riski alohida manbalar risklari yig‘indisidan kam bo‘ladi.

4. Tahlil va natijalar

Tanlangan banklar resurs bazasi tuzilmasining qiyosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tanlangan tijorat banklarining likvidlik va moliyalashtirish ko‘rsatkichlari (01.12.2025 holatiga), %

Bank	Kredit/depozit nisbati	Depozitlarning aktivlardagi ulushi	Kapitalning aktivlardagi ulushi
«O‘zsanoatqurilishbank» ATB	231,1	27,9	11,6
«Asakabank» ATB	178,8	36,6	12,8
«Ipak yo‘li» AITB	123,1	47,6	15,9
«Tenge bank» ATB	189,4	32,6	20,7
AT «Aloqabank»	113,3	53,2	12,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va banklar ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [9; 10].

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, kredit/depozit nisbati 113,3 foizdan (AT «Aloqabank») 231,1 foizgacha («O‘zsanoatqurilishbank» ATB) tabaqalashgan. Uchta bankda bu ko‘rsatkich 175 foizdan yuqori bo‘lib, kredit qo‘yilmalarining katta qismi depozitdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirilayotganini anglatadi. AT «Aloqabank» depozitlarning aktivlardagi ulushi (53,2%) bo‘yicha eng mustahkam o‘rinda bo‘lsa-da, uning resurs bazasida ham tarkibiy siljish kuzatilmoqda: 2020–2025 yillarda depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 75,3 foizdan 56,1 foizga (19,2 foiz punktga) pasaygan, ulgurji moliyalashtirish majburiyatlarning 28 foiziga yetgan va 300 mln AQSh dollarlik yevroobligatsiyalar chiqarilgan [10; 11]. Demak, bank amalda ko‘p kanalli resurs jalb qilishga o‘tgan, biroq kanallar o‘rtasidagi muvozanat miqdoriy mezonlar asosida boshqarilmagan.

Taklif etilgan model AT «Aloqabank» ma’lumotlarida qo‘llanildi (2-jadval).

2-jadval. AT «Aloqabank» resurs bazasi tarkibining multikanal model qo‘llanilgunga qadar va undan keyingi holati

Resurs manbalari	Modelgacha, %	Modeldan keyin, %	Likvidlikka ta’siri, %
Xalqaro kredit liniyalari va eksport-kredit agentliklari	12,5	24,8	27,0
Mahalliy institutsional depozitlar	45,6	38,2	19,5
Bozordagi likvid oqimlar (REPO/SVOP)	18,4	22,5	23,2
Boshqa manbalar	23,5	14,5	–
Jami likvid resurslar hajmi (indeks)	100,0	125,5	+23–27
Konsentratsiya indeksi (HHI), punkt	3126	2791	−10,7

Manba: muallif hisob-kitoblari va AT «Aloqabank»ning 2026 yil 15 oktyabrdagi 16-04/7723-sonli ma’lumotnomasi.

(1) formula bo‘yicha hisob-kitobga ko‘ra, model qo‘llanilgunga qadar resurs bazasining konsentratsiya indeksi 3126 punktni ($12,5^2 + 45,6^2 + 18,4^2 + 23,5^2$), keyin esa 2791 punktni ($24,8^2 + 38,2^2 + 22,5^2 + 14,5^2$) tashkil etib, 10,7 foizga kamaygan. Mahalliy institutsional depozitlarga bog‘liqlik 45,6 foizdan 38,2 foizga tushgan, xalqaro kredit liniyalari ulushi esa deyarli ikki baravar oshgan. Modelning joriy etilishi natijasida bankning umumiy likvid resurslari hajmi 23–27 foizga oshgan, ichki bozordagi likvidlik xavfining ta’siri 17–22 foizga kamaygan, pul bozoridagi o‘zgarishlarga nisbatan barqarorlik 19–24 foizga yaxshilangan.

Shuni ta’kidlash lozimki, xalqaro kredit liniyalari ulushining oshishi bankning valyuta riskini kuchaytiradi. Aynan shu sababli (2) modelda manbalar qiymati valyuta riskiga tuzatilgan holda (r_j) olinadi, (3) cheklovlar esa barqaror moliyalashtirish darajasi va konsentratsiyaning maqsadli chegaradan oshmasligini ta’minlaydi. Bu D.Ch. Murodova ko‘rsatgan xorijiy qarz bilan bog‘liq xavfni [7] miqdoriy nazorat ostiga olish imkonini beradi.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, bank tizimi darajasidagi yuqori LCR va NSFR ko‘rsatkichlari alohida banklar resurs bazasidagi nomutanosiblikni yashiradi: tanlangan banklarda kredit/depozit nisbati 113,3–231,1 foiz oralig‘ida tabaqalashgan. Ikkinchidan, resurs manbalari sonining ortishi emas, balki ularning qiymat, barqarorlik va konsentratsiya bo‘yicha muvozanati likvidlik barqarorligini belgilaydi. Uchinchidan, taklif etilgan multikanal model resurs bazasi

konsentratsiyasini 10,7 foizga kamaytirib, umumiy likvid resurslarni 23–27 foizga oshirishga xizmat qildi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarni boshqarish qo‘mitasi (ALCO) darajasida resurs bazasi konsentratsiyasining ichki chegarasi (HHI*) va har bir manba uchun yuqori chegara (w_j^{max}) tasdiqlanishi; yangi resurs jalb qilish qarorlari (2)–(3) model asosida, valyuta riskiga tuzatilgan qiymat bo‘yicha qabul qilinishi; Markaziy bank tomonidan resurs bazasi konsentratsiyasi ko‘rsatkichi nazorat indikatorlari qatoriga kiritilib, stress-testlarda hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlar manbalar o‘rtasidagi korrelyatsiyani oylik ma’lumotlar asosida baholashga yo‘naltirilishi mumkin.

REFERENCES

1. Berger A.N., Bouwman C.H.S. Bank Liquidity Creation and Financial Crises. – Amsterdam: Academic Press, 2016.
2. Diamond D.W., Kashyap A.K. Liquidity requirements, liquidity choice, and financial stability // Handbook of Macroeconomics. – 2016. – Vol. 2. – P. 2263–2303.
3. Duijm P., Wierts P. The effects of liquidity regulation on bank assets and liabilities // International Journal of Central Banking. – 2016. – Vol. 12, No. 2. – P. 385–411.
4. Banerjee R.N., Mio H. The impact of liquidity regulation on banks // Journal of Financial Intermediation. – 2018. – Vol. 35, Part B. – P. 30–44.
5. Hoerova M., Mendicino C., Nikolov K., Schepens G., Van den Heuvel S. Benefits and costs of liquidity regulation // ECB Working Paper Series. – 2018. – No. 2169.
6. Избосаров Б.Б. Глобаллашув шароитида тижорат банкларининг ликвидлилигини тартибга солиш амалиётининг долзарб масалалари // Иқтисодиёт ва таълим. – 2023. – № 1. – Б. 135–____. – DOI: 10.55439/ECED/vol24_iss1/a19.
7. Муродова Д.Ч. Тижорат банкларининг ликвидлигини тартибга солиш амалиётини такомиллаштириш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2022. – № 6. – Б. 107–111. – DOI: 10.55439/ECED/vol23_iss6/a16.
8. Sulaymanov S.A. Monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidliligini tartibga solish yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – № 6. – B. 157–165. – DOI: 10.55439/EIT/vol12_iss6/625.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. – Toshkent, 2026. – URL: https://cbu.uz
10. AT «Aloqabank». 2024 yil uchun yillik hisobot. – Toshkent, 2025. – URL: https://aloqabank.uz
11. Fitch affirms Aloqabank at ‘BB’ with Positive Outlook // UzDaily.uz. – 2026, 20 iyun. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/fitch-affirms-aloqabank-at-bb-with-positive-outlook/
12. Roberts D., Sarkar A., Shachar O. Bank liquidity creation, systemic risk, and Basel liquidity regulations // Federal Reserve Bank of New York Staff Reports. – 2018. – No. 852.